



Tadqiqot.uz

**ЎЗБЕКИСТОН  
ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ  
ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАРИ  
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ  
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

31 DEKABR  
**№35**

CONFERENCE.uz



**“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА  
ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН  
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”  
25-ҚИСМ**

---

**«ИННОВАЦИОННЫЕ НАУЧНО-  
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЧЕНЫХ И МОЛОДЕЖИ УЗБЕКИСТАНА»  
ЧАСТЬ-25**

---

**«INNOVATIVE SCIENTIFIC AND PRACTICAL  
RESEARCH OF SCIENTISTS AND YOUTH OF  
UZBEKISTAN»  
PART-25**

**ТОШКЕНТ-2021**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари” [Тошкент; 2021]**

**“Ўзбекистон олимлари ва ёшларининг инновацион илмий-амалий тадқиқотлари”** мавзусидаги республика 35-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 18 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Узбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағищланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ГЕОГРАФИЯ**

<b>1. Qilichova Shamsiya Maxmudovna</b>	
O'ZBEKISTONNING TABIIY BOYLIKLARI .....	7
<b>2. Ramazonova Dilhayo Ibrohim qizi</b>	
O'ZBEKISTON MILLIY IQTISODIYOTINING TUZILISHI .....	9
<b>3. Ro'ziyeva Zarina Xudoyqul qizi</b>	
O'ZBEKISTONNING TEMIRYO'L TRANSPORTI.....	10
<b>4. Babaeva Malika Usmon qizi</b>	
GEOGRAFIYA TA'LIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION TEX- NOLOGIYALARING O'RNI .....	11
<b>5. Nurmetova Gulnoza</b>	
BUYUK GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR DAVRIDA IQTISODIY VAZIYAT VA UNING GEOGRAFIK JIHATLARI .....	13
<b>6. Primqulova Iroda</b>	
GEOGRAFIYA FANINING RIVOJLANISH TARIXI .....	15
<b>7. Aliyeva Xolida Sulaymonovnovna</b>	
UMUMIY TABIIY GEOGRAFIYA .....	17



## ГЕОГРАФИЯ

### O'ZBEKISTONNING TABIIY BOYLIKLARI

**Qilichova Shamsiya Maxmudovna**  
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 11-maktab  
Geografiya fani o'qituvchisi  
Telefon: +998 91 250 34 38

**Annotatsiya:** Ushbu maqola O'zbekistonning tabiiy boyliklari va ularning turlari, ulardan oqilona foydalanish, inson tabiatdan oladigan barcha moddiy boyliklar – yerosti boyliklari, suv, havo, tuproq, o'simliklar, hayvonot olami va boshqalar haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** tabiiy boyliklar, resurs, tabiat, tabiiy sharoit, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish, moddiy boyliklar.

O'zbekiston yerusti tuzilishi betakrordir. Shunga monand tabiatni ham, boyliklari ham xilmashil. Qulay tabiiy sharoit ishlab chiqarish samaradorligining muhim tabiiy omilidir. Tabiiy sharoit, ayniqsa, qishloq xo'jaligi, foydali qazilmalar qazib chiqarish va transport harakatida yaqqol bilinadi. Tog` relyefi, sho'rxoklar, cho'llar, taqirlar, jarliklar hududni xo'jalik jihatidan o'zlahatirishni qiyinlashtiradi. Qurg'oqchil yillarda daryo suvlari kamayib, ekinlarni suv bilan ta'minlash og'ir kechadi. Lekin fan-texnika taraqqiyoti tufayli ishlab chiqarishning tabiiy sharoitga bog'liqligi yengib kelinmoqda.

Inson tabiatdan oladigan barcha moddiy boyliklar – yerosti boyliklari, suv, havo, tuproq, o'simliklar, hayvonot olami va boshqalar tabiiy resurs (boylik) hisoblanadi.

Tabiiy boyliklar tabiiy sharoitdan farq qilib, ishlab chiqarishga bevosita aloqador, ya'ni uning xomashyo va energetika bazasini tashkil etadi. Eng muhim boyliklardan biri – bu yerosti boyliklari (mineral resurslar). Ulardan sanoatda, maishiy ehtiyojlarda keng miqyosda foydalaniladi. O'zbekiston katta yerosti boyliklariga ega bo'lgan mamlakatdir. Ammo mamlakat iqtisodiyotining xomashyo va yoqilg'iga bo'lgan ehtiyoji to'xtovsiz ortib bormoqda. Hozirda tabiiy boyliklarning yarmiga yaqinidan foydalanilmoqda. Shunday bo'lsa-da, tabiiy boyliklar zaxirasidan tejab foydalanishimiz zarur. Chunki yerosti boyliklari tugaydigan va tiklanmaydigan boylikdir.

Tiklanmaydigan boyliklardan oqilona foydalanishning asosiy shartlari:

- konlardan qazilmalarni to'liq qazib olish;
- atrof-muhitning buzilishiga yo'l qo'ymaslik;
- barcha qimmatli moddalardan majmuali-mukammal foydalanish;
- geologik qidiruv ishlarini tadrijiy davom ettirish;
- mahsulot birligiga sarf bo'ladigan xomashyo va yoqilg'ini tejaydigan texnika va texnologiyani qo'llash.

Eng muhim tabiiy boyliklaridan yana biri – **suv**. Qishloq xo'jaligida ko'p miqdorda suv sarflanadi. Sanoat korxonalari uchun ham ko'p suv talab qilinadi. Korxonalar eng katta shaharlar aholisi iste'mol qiladigan suvdan ko'proq suvni "ichib" qo'ymoqda. Suv – tiklanadigan tabiiy boylikdir.

Tabiiy boyliklarning turlari:

1. Tugaydigan boyliklar. 2. Tugamaydigan boyliklar. 3. Tugab qayta tiklanadigan boyliklar.

Tugaydigan boyliklar: mineral yoqilg'i boyliklari (ko'mir, neft, gaz, torf, slanetslar), tuzlar, oltingugurt, fosforit va boshqalar.

Tugamaydigan boyliklar: yadro energiyasi, Quyosh energiyasi, geomermal energiya, shamol energiyasi, dengiz suvining qalqish energiyasi, oqimlar energiyasi, iqlim boyliklari.

Mineral boyliklardan, ya'ni foydali qazilmalardan og'ir sanoatda, suv boyliklaridan sanoat, qishloq xo'jalik va maishiy ehtiyojlarda, yer(tuproq) unumdarligidan qishloq xo'jaligida



foydalaniladi.

Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish uchun ularni iqtisodiy jihatdan baholash, ya`ni fan va texnika taraqqiyotiga juda ko`p mahsulot yetkazib berib rivojlantirib kelmoqda. O`zbekiston boyliklariga yer, paxta, bug`doy, suv boyliklari ham kiradi. Qishloq xo`jaligi ilg`orlari doimo bu boyliklarni yetkazib berishga jonbozlik ko`rsatmoqdalar.

**Foydalilaniladigan adabiyotlar ro`yxati:**

1. P. Musayev, J. Musayev. Geografiya. 8-sinf darsligi. Toshkent. 2019-yil.
2. O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Toshkent. 2005-y.
3. P. G`ulomov, H. Vahobov. Geografiya darsligi, 7-sinf. Toshkent.2017.
4. Internet ma`lumotlari.



## O’ZBEKISTON MILLIY IQTISODIYOTINING TUZILISHI

Ramazonova Dilhayo Ibrohim qizi

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani

XTB ga qarashli 12-maktabi

Geografiya va iqtisod fani o’qituvchisi

Telefon: +998 99 556 35 00

**Annotatsiya:** Ushbu maqola bozor iqtisodiyotiga o’tish bilan O’zbekiston iqtisodiyotining tuzilishi, yaqin o’tmishdagi qishloq xo’jaligi yetakchi bo’lgan mamlakatimizda sanoatning, xususan, og’ir sanoatning salmog’ining oshayotganligi, avtomobilsozlik, kompyuter texnikasi, mobil telefonlar, keng turdagи maishiy elekrotexnika mahsulotlari ishlab chiqaradigan yangi tarmoqlar bo’yicha ma’lumot beriladi.

**Kalit so’zlar:** iqtisod, sanoat, bozor iqtisodiyoti, qishloq xo’jaligi,

Jahonning siyosiy xaritasida 1991-yil 1-sentabr yangi mustaqil davlat—O’zbekiston Respublikasi paydo bo’ldi. Shu kundan boshlab u “o’ziga xos va mos” taraqqiyot yo’lini tanladi. Bu yo’lning o’ziga xosligi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning 5 tamoyilida yaqqol ifodalangan:

1. Iqtisodning siyosatdan ustun turishi;
2. Davlat islohotlar tashabbuskori;
3. Barcha sohalarda qonun ustuvorligi;
4. Kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish;
5. Bozor munosabatlariaga bosqichma-bosqich o’tish.

Bozor iqtisodiyotiga o’tish bilan O’zbekiston iqtisodiyotining tizilishi butkul o’zgarmoqda. Yaqin o’tmishdagi qishloq xo’jaligi yetakchi bo’lgan mamlakatimizda sanoatning, xususan, og’ir sanoatning salmog’i oshmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillardanoq qishloq xo’jaligida paxta yakkahokimligini bartaraf etishga kirishildi. Sanoat esa avtomobilsozlik, kompyuter texnikasi, mobil telefonlar, keng turdagи maishiy elekrotexnika mahsulotlari ishlab chiqaradigan yangi tarmoqlar hisobiga ko’p tarmoqli bo’la boshladi. Mamlakatimizda 2017-2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo’nalishi bo’yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilingach, milliy iqtisodiyot tarkibini takomillashtirish yangi bosqichga ko’tarildi. Jumladan, Harakatlar strategiyasining “Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish” deb nomlangan uchinchi ustuvor yo’nalishida milliy iqtisodiyotning mutanosibligi va barqarorligini ta’minlash, uning tarkibida sanoat, xizmatlar ko’rsatish sohasi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushini ko’paytirish vazifasi qo’ylgan. Shu sababli mamlakatimizda sanoatning, birinchi navbatda og’ir sanoatning jadal o’sishi kuzatilmoqda. Ana shunday o’zgarishlar natijasida yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoatning ulushi 30,6 foizdan ziyodni tashkil etmoqda. Holbuki, bu ko’rsatkich 2000-yilda 14,2 foizdan iborat edi. Endilikda mamlakatimiz iqtisodiyoti o’zarboq langan sanoat, qishloq xo’jaligi, transport, qurilish, aloqa, savdo, fan, ta’lim, sog’liqni saqlash kabi tarmoqlarni o’zida birlashtiradi. Og’ir sanoat, ayniqsa, mashinasozlikning jadal yuksalishi qishloq xo’jaligi, yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalarini unumli-samarador mashina va mexanizmlar bilan qayta jihozlanishiga, mamlakat mudofaa quvvatining kuchayishiga imkon beradi. Eng muhimi, mamlakat texnik qaramlikdan qutuladi.

Ekstensiv xo’jalik yuritish – ishlab chiqarishni fan-texnika yutuqlari va zamonaviy mexanizatsiya imkoniyatlari o’rniga tabiiy boyliklarni jadal o’zlashtirish hisobiga yuksaltirish usuli. Ekstensiv xo’jalik yuritish usuli natijasida yoqilg’I, energiya, inson omili, ayniqsa, suv ko’p sarflandi. Suv sarfining ko’payishi Orol fojiasini keltirib chiqargan sabablardan biri bo’ldi. Yerdan foydalanishdagi xatoliklar esa tabiatning ifloslanishi va tuproq unumdarligining pasayishiga olib keladi.

Intensiv xo’jalik yuritish – fan va texnika yutuqlarini iqtisodiyotga tezkor joriy etuvchi, xomashyo va boyliklarni tejab-tergab, chiqindi chiqarmay to’liq foydalanish usuli. Intevsiv xo’jalik yuritish usulidan foydalangan holda xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlikda zamonaviy texnologiyaga asoslangan qo’shma korxonalar tashkil qilmoqda.

### Foydalilaniladigan adabiyotlar ro’yxati:

1. P. Musayev, J. Musayev. Geografiya. Toshkent. 2019-yil.
2. I. Karimov. Bozor munosabatlariaga o’tishning o’ziga xos yo’li. Toshkent. 1993-yil.
3. M. Rasulov. Bozor iqtisodiyati asoslari. Toshkent. 1999-yil.



## O'ZBEKISTONNING TEMIRYO'L TRANSPORTI

**Ro'ziyeva Zarina Xudoyqul qizi**

Navoiy viloyati Qiziltepa tumani 11-maktabi

Geografiya fani o'qituvchisi

Telefon: +998 90 717 18 69

**Annotatsiya:** Ushbu maqola O'zbekistonning temiryo'l transporti va uning zamonaviy rivojlanishi, uning xususiyatlari, afzallik tomonlar, inson hayotidagi o'rni haqida ma'lumot beriladi.

**Kalit so'zlar:** transport, temiryo'l, transit, elektrovoz, magistral, elektrorashtirish.

O'zbekistonda mavjud bo'lgan transport turlari orasida yetakchi va muhim o'rinni temir yo'llar egallaydi. Temiryo'l transportining boshqa transport turlariga nisbatan yana bir afzalligi shundaki, bu transport atrof-muhitga kam zarar yetkazadi, uning yuk va yo'lovchilar tashish qobiliyati juda yuqori.

Temiryo'l transporti iqlimi sharoitlar va yil fasllari qanday bo'lishiga qaramasdan hamma vaqt ishlayveradi. Uning tezligi katta, yuk tashish tannarxi nisbatan past. Temiryo'l magistrallarini turli yo'naliishlarda qurish mumkin. Magistral (lotincha magistralis – asosiy) – asosiy yo'naliish, asosiy transport yo'li.

Mustaqillik yillari mamlakatimizda temiryo'llarning qurilishiga katta e'tibor qaratildi va hozirgi vaqtga kelib ularning umumiy uzunligi 7 ming kilometrdan ortdi. Avvallari mamlakatimiz poytaxtidan Xorazm va Surxandaryo viloyatiga borish uchun qo'shni davlat Turkmaniston hududidan o'tishga to`g'ri kelgan. Xuddi shuningdek, Farg'ona vodiyisiga Tojikistondan o'tilgan. Bu holat yo'lovchi va yuk tashishda ortiqcha vaqt va mablag' talab qilgan. Endilikda mamlakatimizda bir butun temiryo'l tizimini vujudga keltirish, O'zbekiston chekka hududlari rivojlanishini tezlatish maqsadida Navoiy-Uchquduq-Nukus Surxandaryo va Qashqadaryo viloyatlarini bog'lovchi Guzor – Qumqo'rg'on – Boysun, Toshkentni Farg'ona vodysi bilan bog'lovchi Angren – Pop temiryo'llari bitkazildi. Mamlakatimizning deyarli barcha temiryo'llari tekisliklardan, daryo vodiylari o'tsa-da, aynan Angren-Pop hamda Guzor – Boysun – Qumqo'rg'on yo'naliishidagi temiryo'llar baland tog' oralaridan o'tadi. O'zbekiston temiryo'llarining mamlakatimiz ichidagi yo'lovchi va yuklarni tashishdan tashqari, Osiyo va Yevropa mamlakatlarining transit yuklarini tashishda ham ahamiyati oshib bormoqda

Transit – yuk yoki yo'lovchilarning oraliqdagi stansiya, davlat, orqali o'tishi. Temiryo'llar yo'lovchilarni tashishda ham muhim o'rinni tutadi. Yil davomida temiryo'lidan 15-20 mingdan ko'proq yo'lovchi foydalanmoqda.

O'zbekistonda temiryo'llar qo'shni mamlakatlar (Qirg'iziston, Tojikiston, Avg'oniston, Turkmaniston)dagiga qaraganda ko'p va texnik jihatdan oldinda tiradi. So'nggi o'ng yillikda O'zbekistonda temiryo'llarning qurulishi va elektrorashtirilishiga juda katta e'tibor qaratildi.

Temiryo'llarning elektrorashtirilishi va elektrovozlarning ishlatilishi bilan poyezdlarning qatnov tezligi, yo'llarning o'tkazish imkoniyati, demakki, ish unumi ortdi. Yo'lning o'tkazish imkoniyati – temiryo'llardan bir kecha-kunduzda o'tish mumkin bo'lgan poyezdlar miqdori. Ikki yo'lli temiryo'llarning o'tkazish imkonoyati bir kecha-kunduzda 150 juft poyezdga, bir yo'lli temiryo'llarda esa, 30 juft poyezdga yetishi mumkin.

Temiryo'llarni jahon talablari darajasida texnik jihozlanishi tufayli Toshkent-Samarqand yo'naliishida yo'lovchilar tashishga mo'ljallangan zamonaviy tezyurar "Afrosiyob" elektropoyezdlar qatnovi yo'lga qo'yildi. O'rta Osiyoda birinchi bo'lib bunyodeyilgan tezyurar temiryo'lni foydalanishga topshirilishi natijasida turizm rivojlanishi barobarida avtomobil yo'llaridagi tig'izlikga barham berildi. Endilikda "Afrosiyob" elektropoyezdlari Toshkent-Buxoro, Toshkent-Qarshi-Shahrisabz yo'naliishlari bo'yicha ham qurilmoqda.

Avtomobil transporti yuklarni (boshqa transportga qayta ortmay) bevosita is'temolchiga yetkazib bera oladi. Avtomobil transporti sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalarini magistral transport bilan bog'laydi, shaharlardagi va shaharlar atrofi hududlaridagi yuklarning asosiy qismini tashiydi. Qisqa (100 kmgacha) va o'rtacha masofalarga yo'lovchi hamda yuk tashishda temiryo'llarga yo'llarga qaraganda avtomobil afzaldir. Mamlakatimizning tog'li rayonlarida avtomobil transportining ahamiyati, ayniqsa, katta.

### Foydalanimadigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Q. Abirqulov. Iqtisodiy geografiya. Toshkent. 2004-y.
2. E. A. Axmedov, M. J. Boltayev. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasি. Toshkent. 2000-y.



GEOGRAFIYA TA’LIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSION  
TEXNOLOGIYALARNING O’RNI

Babaeva Malika Usmon qizi  
Xorazm viloyati Urganch tumani  
43-sont maktab Geografiya fani o’qituvchisi  
Tel: +998907389011

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada geografiya fani bilan bir qatorda barcha tabiiy fanlar tizimida innovatsion texnologiyalarning o’rni va samaradorligi keltirib o’tiladi. Hozirgi vaqtida ta’lim tizimiga yangicha usulda yondashish talab qilinayotgan bir vaqtida, ushbu usullardan samarali foydalana oladigan malakali pedagog kadrlarni tayyorlash lozimligi haqida ham so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** innovatsiya, interfaol, geografiya, tabiiy fanlar, usul, pedagog, malaka, dars, o‘quvchi, ta’lim.

Mamlakatimizning ta’lim sohasidagi innovatsion islohotlari tizimida bo‘lajak pedagog shaxsini shakllantirishning asosi bo‘lgan kasbiy tayyorgarlik sifatini oshirish muammosi alohida o‘rin tutadi. Bugungi kunda ta’lim sifatini oshirish o‘quvchilarning mustaqil ijodiy tafakkurini o‘sirish, pedagogik jarayonda innovatsion texnologiyalardan keng va samarali foydalanishnigina emas, balki, mazkur jarayonning rejalashtiruvchisi, amalga oshiruvchisi va boshqaruvchisi bo‘lgan o‘qituvchining kasbiy saviyasi, kasbiy tayyorgarligini shakllantirish masalasiga chuqurroq yondashuvni talab etadi. Shu sababli ta’lim-tarbiya, malakali mutaxassilar tayyorlash, shuningdek, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimiga qo‘yilayotgan talablarning soni har qachongidan ortib bormoqda.

Geografiya fani tizimida ham innovatsion texnologiyalardan foydalanib mashg‘ulotlarni tashkil etish dolzarb masala bo‘lib, darslarni qiziqarli o‘tishi uchun juda qulay. Chunki ta’lim texnologiyalarining asosiy maqsadi o‘quv jarayonini faollashtirish, talabalar tomonidan o‘quv materialini o‘zlashtirishning yuqori darajasiga erishish va ularni mustaqil fikrlashga hamda o‘z fikrini bayon etishga o‘rgatishdir.

Tabiiy fanlar tizimida ta’lim texnologiyalarini qo‘llashning muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni tahsil oluvchilarga yetkazib berish, ularda ma’lum faoliyat yuzasidan ko‘nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, tahsil oluvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko‘nikma hamda malakalar darajasini baholash geografiya fani o‘qituvchilaridan yuksak pedagogik mahorat hamda ta’lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Hozirgi kunga kelib qator rivojlangan mamlakatlarda o‘quv va ijodiy faollikni oshiruvchi hamda ta’lim – tarbiya jarayonining samaradorigini kafolatlovchi ta’lim texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda.

Interfaol metodlar asosida tuzilgan dars tizimlarida turli strategiyalardan foydalaniladi. Bunda o‘quvchilarga kitoblar, daftар, boshqa usullardan foydalanish taqiqlanmaydi, aksincha bunday usullarni qo‘llash rag‘batlantiriladi.

Bundan tashqari tabiiy fanlar ta’limi tizimlarini tashkil etishda rolli o‘yinlardan samarali foydalanishga ham katta e’tibor berilmoqda. O‘yin ijtimoiy tajribani akkumiliyatsiya qilish va uzatishdan iborat bo‘lib, u amaliy jihatdan turli xil vaziyatlardagi xulq-atvor normallari va qoidalari orqali etikaviy va faoliyat vazifalarini amalga oshirish vositalarini o‘zlashtirishni ta’minkaydi. O‘yin metodlarining asosiy maqsadi tinglovchilarni faqat tinglashi emas, balki bilimlarni o‘zlashtirishda bevosita ishtiropini ta’minalash orqali ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishga qaratilgan. O‘yin har xil muammolarni hal etishdagi imitatcion faoliyatlarni tuzish uchun eng qulay asos hisoblanadi.

Ta’lim jarayonida rolli o‘yinlardan foydalanish tinglovchilarni o‘yin muallifi, rolni ijrochisi faoliyatiga ko‘ra tinglovchilarning faol pozitsiyaga ega bo‘lishi o‘yinda predemeti faoliyatni o‘zlashtirishni tezlashtiradi. Rolli o‘yinlar orqali ijtimoiy-iqtisodiy va ishlab chiqarish emas, balki ijtimoiy va madaniy tizimni ham modellashtirish mumkin. Rolli o‘yinlarda doimo real hayotga yaqin bo‘lgan inson hayotining har xil shart-sharoit modellari ishtirop etadi. Rolli o‘yinda ishtiropchilar faoliyati o‘yin kompleksidan stimul oladi. Ishtiropchilar o‘yin davomida vaziyatni tahlil qilishadi.



Buning uchun ularga hech kim yordam bermaydi. O’zlarini boshqarish va uyushtirishlari orqali natijalarga erishadilar. O’yinchilar boshqa ishtirokchilar yordamida o‘yin reaksiyasini olishadi, murakkab vaziyatlar bilan bog‘liq o‘yin maqsadlariga shaxsiy harakatlari orqali erishadilar va xulosalarni o‘zlar qabul qilishadi. Rolli o‘yinlar o‘quvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

Rolli o‘yin qoidasiga ko‘ra, rahbar o‘yin kompleksining bevosita ishtirokchisi bo‘la olmaydi. U kadr ortidagi shaxs bo‘lib qoladi. Uning vazifasi o‘yin metodlari orqali ob’ektiv voqelikni belgilovchi shart-sharoitlarini yaratishi va qo‘llab quvvatlashi mumkin (teatr personaji, gazeta maqolasi, xat, konferensiya). Rolli o‘yinning boshqa o‘yinlardan farqli maqsadi jamoaviy yoki individual qaror qabul qilishga asoslanadi.

Bu kabi metodlar o‘z mohiyatiga ko‘ra tabiiy fanlar tizimida ta’lim oluvchilarda bilim olish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishlash, o‘rganilayotgan mavzu, muammolar bo‘yicha shaxsiy qarashlarini dadil, erkin ifodalash, o‘z fikrlarini himoya qilish, dalillar bilan asoslash, tengdoshlarini tinglay olish, g‘oyalarni yanada boyitish, bildirilgan mavjud mulohazalar orasidan eng maqbul yechimni tanlab olishga rag‘batlantirish imkoniyatiga egaligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Ta’lim va tarbiya jarayonida o‘qituvchi (pedagog) lar tomonidan interfaol metodlarning o‘rinli, maqsadli, samarali qo‘llanilishi ta’lim oluvchi (o‘quvchi, talabalar)da muloqotga kirishuvchanlik, jamoaviy faoliyat yuritish, mantiqiy fikrlash, mavjud g‘oyalarni sintezlash, tahlil qilish, turli qarashlar orasidagi mantiqiy bog‘liqlikni topa olish qobiliyatlarini tarbiyalash uchun keng imkoniyat yaratadi.

Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub’ektlarning suhbat (dialog), o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning olib borishlarini ifodalaydi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, geografiya ta’limida yuqoridaq interfaol metodlardan foydalangan holda darslar tashkil etilsa, o‘quvchilarning ilm olishlari, o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha bilimlarini yanada oshirish mumkin. Bu esa bugungi kunga kelib tobora kengayib va chuqurlashib borayotgan jahon kadrlar tarmog‘i inqirozini bartaraf eta oladigan, mustaqil fikrga ega bo‘lgan mutaxassis kadrlar yetishtirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdiyeva Z.A. Geografiya fanida noan’anaviy dars usullaridan foydalanish.
2. Yo‘ldoshev J.G. «Yangi pedagogik texnologiyalar» (yo‘nalishlari, muammolari, yechimlari) – «Boshlang‘ich ta’lim», 1999 yil, № 6, 2-5 betlar.
3. Sayidaxmedov N. “Yangi pedagogik texnologiya prinsiplari”, “Ma’orif” gazeta № 85, 1995 yil, 27 oktyabr, 1-3 betlar.



**BUYUK GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR DAVRIDA IQTISODIY VAZIYAT VA  
UNING GEOGRAFIK JIHATLARI**

**Nurmetova Gulnoza**

Xorazm viloyati Urganch shahar  
8-son ayrim fanlar chuqur o’rganiladigan  
ixtisoslashtirilgan maktab - internetning  
geografiya fani o’qituvchisi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada buyuk geografik kashfiyotlar davrida Yevropa va Osiyo mamlakatlariidagi iqtisodiy vaziyat, savdo aloqalari va geografik kashfiyotlarning jahon taraqqiyotiga qo’shgan ulkan hissasi haqida so’z yuritiladi.

**Kalit so’zlar:** kashfiyotlar davri, savdo yo’llari, Xitoy qimmatbaho buyumlari, Marko Polo.

Buyuk geografik kashfiyotlar davri deb - XV asrning o’rtasi yoki oxiridan XVII - asr o’rtalarigacha bo’lgan davrlar aytildi. Buyuk deb atalishga loyiq geografik kashfiyotlar har doim ham bo’lgan, lekin hech qaysi davr Buyuk geografik kashfiyotlar davridagidek dunyo taqdiriga kuchli ta’sir ko’rsatadigan kashfiyotlarga boy bo’lmagan.

Ushbu davrga qadar Yevropaliklarga Yevropa, Osiyo va Afrikaning bir qismigina ma’lum edi. Sharqdan kelayotgan turli savdogarlarning ma’lumotlariga suyanib Xitoy, Hindiston va Yaponiya haqida dunyodagi eng boy hududlar sifatida tasavvur hosil bo’lgan edi. Bu mamlakatlardan olib kelinayotgan mollar, ayniqsa ziravorlar Yevropada juda qimmat turar, Yevropaliklarning oltin va kumushlari kamlik qilib qolgan edi. Shuning uchun ham o’rta asrlarda har qanday metallni oltinga aylantirishni va’da qiluvchi alximiya fani rivojlanib ketdi. Yevropaliklar

Sharqning boy o’lkalariga yetib borishga urinardi, ammo XV- asrda Usmoniyalar imperiyasi quruqlik yo’lini to’sib qo’ygan edi.

Buyuk geografik kashfiyotlar jahon taraqqiyotiga benihoya katta ijobjiy ta’sir ko’rsatgan. Kashfiyotlar jahon savdo yo’llarini butunlay o’zgartirib yubordi. Endi savdo yo’llari O’rta Yer dengizi bo’ylab emas, balki okeanlar orqali o’tadigan bo’ldi. Yangi ochilgan yerlar bilan savdo aloqalari – jahon savdosini vujudga keltirdi. Geografik sayohatlar kashf etilgan “Yangi dunyo” bilan “Eski dunyo” madaniy o’choqlari orasida bevosita iqtisodiy va madaniy aloqalar o’rnatalishiga imkoniyat yaratildi.

Buyuk geografik kashfiyotlar Yevropaliklarning dunyo haqidagi tasavvurlarini kengaytirib, bilimlarini oshirdi. O’zga qit’alar va xalqlar to’g’risidagi ko’plab afsonalar, noo’rin fikrlar chilparchin bo’ldi. Ilmiy bilimlarning rivojlanishi Yevropada sanoat va savdoning yuksalishiga, moliya sohasida bank va kredit ishlarida yangicha uslublar yaratilishiga imkon berdi.

Geografik kashfiyotlar va mustamlaka yerlarni bosib olish Yevropa mamlakatlarda tovar ishlab chiqarishning o’sishiga yordam berdi. Lekin, bu ishlar Amerika, Osiyo va Afrika xalqlarining asrlar davomidagi qulligi, tahqirlanishi, og’ir mehnatlari evaziga bo’ldi. Ular Yevropada yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yaratilishiga xizmat qildilar.

Ispanlar va portugallar buyuk geografik kashfiyotlarning yo’lboshchilari bo’ldilar. Yer yuzasini o’rganishda normanlar, arablar va Sharqiy Yevropada yangi bo’lgan madaniyat markazi - Rossiya alohida rol o’ynagan. VIII-X asrlarda dengiz orqali qilingan geografik kashfiyotlarda normanlar, ya’ni skandinaviyaliklar juda katta rol o’ynaydi. Geografik bilimining kengligi diqqatga sazovordir. Bunga ruslarning G’arbiy Yevropa va Osiyo bilan ham, varyaglar va greklar bilan ham aloqa qilib turganligi, shuningdek, yunon fani bilan ham tanishligi sababdir.

Yevropaliklar Xitoy va Hindiston bilan Old Osiyo, O’rta Osiyo va Markaziy Osiyodan o’tadigan «shoyi (ipak) yo’li» orqali (arablar savdo yo’lini chetda qoldirib) savdo olib borar edilar. Bu yo’lni savdogarlar tog’-toshloq cho’llarning og’ir sharoitida bir tomonga uch-to’rt yilda bosib o’tar edilar, lekin Xitoy buyumlarining qimmat baho ekanligi bu qiyinchiliklarni oqlar edi. Xitoyga borgan eng mashhur sayyoh venetsiyalik savdogar Marko Polo bo’lgan. Marko Polo 1271 yil yosh yigitlik davrida sayohatga chiqib, Xitoya 17 yil yashadi va Yevropaga Janubiy Osiyo orqali 1295-yilda qaytib keldi, shunday qilib, u 24 yil sayohatda bo’ldi. Marko Polo o’z kitobida o’sha vaqtida ko’p jihatdan noma’lum bo’lgan juda ko’p joylar haqida yozdi. Uning bu kitobi Sharq bilan bo’lgan savdoga qiziqishning kuchayishiga yordam berdi. Uning kitobi geografik kashfiyotlar davrida eng ommaviy kitob edi, chunki unda Dunyoning Ptolemy kartasida ko’rsatilmagan joylari yoritib



berilgan. Shunday qilib, XII—XIV asrlarda yer yuzasi bilan tanishishda ancha katta qadam tashlandi. Lekin tabiiy hodisalar sababini tushuntirishda diniy qarashlar hali ham hukmronlik qilib kelar edi, shunga qaramay, sayohatlar diniy qarashlarga ancha putur yetkazgan edi, «geografiya» so'zi ishlatilmas edi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Zokirov Sh. S., Toshov X.R. Geografiya tarixi.
2. Karomiddin Gadoyev, Sabohat Berdiyeva. Jahongashta sayyoh-olimlar
3. Vahobov H. Umumiyl Yer bilimi. Darslik
4. [mba@library.isu.ru](mailto:mba@library.isu.ru)



## GEOGRAFIYA FANINING RIVOJLANISH TARIXI

Primqulova Iroda

Sirdaryo viloyati Guliston shahar 2-IDUMning  
Geografiya fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:** ushbu maqolada geografiya fanining tarixi, rivojlanishi va uning rivoji uchun hissa qo'shgan olimlar haqida ma'lumot beriladi

**Kalit so'zlar:** geografiya, fan, tarix, ibtidoiy, antik, 2-ming yillikda, O'rta dengiz, Gibraltar bo'g'izi, Afrika qirg'oqlari, Hindiston, Osiyo va Yevropa, O'rta Osiyo, Misr, Eron

Barcha fanlar singari, geografiya ham eng qadimgi va hamisha navqiron fanlardan biri hisoblanadi. Geografik kashfiyotlar, g'oya va bilimlarning rivojlanish xususiyatlariga asoslanib, bu fanning tarixida quyidagi bosqichlarni ajratib ko'rsatish mumkin.

Qadimgi yoki antik davr bosqichi. Ibtidoiy odamlarning o'zi yashab turgan joyni o'rganish, yashash uchun qulay joylar toppish orqali, dastlabki Geografik bilimlar to'planib borgan.

Eramizdan avvalgi 2-ming yillikda finikiyaliklar O'rta dengizdan Gibraltar bo'g'izi orqali suzib o'tib, Afrika qirg'oqlari bo'ylab Hindistongacha suzib borganlar. Shu paytdan Osiyo va Yevropa nomlari paydo bo'lgan. Bu davrda yunonlar va rimliklar o'sha paytda ma'lum bo'lgan hududlarni tasvirlab yozish bilan birga xaritalarini ham tuzdilar. Eratosfen er.avv. III asrda birinchi bo'lib Yerning kattaligini o'lchadi va "Geografiya" nomli kitobini yozib, geografiya fanining mustaqil fan bo'lib chiqishiga asos soldi.

O'rta asrlar bosqichi. Bu davrda geografiya, umuman, ilm-fan, asosan Sharqda, xususan, O'rta Osiyo, Misr, Eronda rivojlandi. Geografiya fani, asosan o'lakashunoslik, kartografiya, geodeziya yo'nالishida rivojlandi. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy IX asrda Yerning sharsimon ekanligini isbotlab, uning o'lchamlarini nisbatan aniq o'lchadi. "Surat-al-Arz" nomli kitob yozib, Sharq geografiyasiga asos soldi. Geografiya fanining rivojida Abu Rayhon Beruniyning xizmati beqiyos. Uning geografiyaga oid 22 ta asari bo'lib, shundan 12 tasi geodeziya, 4 tasi kartografiya, 3 tasi iqlimshunoslik, 3 tasi mineralogiyaga oid va hozirgi kunda ham dolzarb hisoblanadi.

Buyuk geografik kashfiyotlar bosqichi. XV asrning ikkinchi yarmiga kelib, Yevropada tabiiy resurslar va xomashyoga boy deb hisoblangan. Hindiston va Xitoyga yangi yo'llarni topish ishlari boshlandi. Natijada «Buyuk geografik kashfiyotlar» qilindi. Buyuk geografik kashfiyotlar asosan 3 ta yo'nالishda olib borildi:

- 1) janubiy – Afrika bo'ylab;
- 2) g'arbiy – Atlantika okeani orqali;
- 3) shimoliy – Yevrosiyoning qutbiy o'lkalari va shimoliy qirg'oqlari bo'ylab.

Ushbu bosqich 1492-yil ispaniyalik Xristofor Kolumbning Amerikaga 1-sayohatidan boshlanadi. 1498-yili portugaliyalik Vasko da Gama ekspeditsiyasi Afrikani aylanib o'tib, Yevropadan Hindistonga boradigan dengiz yo'lini ochdi.

Ilmiy geografik ishlar bosqichi. XVII asrga kelib fanlarning rivoj- lanishida keskin ildamlash ro'y berdi. Geografiyada maxsus ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirila boshlandi. Bunday ekspeditsiyalardan eng muhimlari:

1725–1741-yillarda V.Bering va A.Chirikov boshchiligidagi rus ekspeditsiyasi, 1785–1788-yillarda J.Laperuz rahbarligidagi fransuz ekspeditsiyasi, 1768–1779-yillarda J.Kuk boshchiligidagi 3 arotaba dunyo bo'ylab ingliz ekspeditsiyasi. Bu ekspeditsiyalar tomonidan Kuril orollari, Kamchatka va Chukotka yarimorollari, Osiyoning shimoliy qirg'oqlari, Afrika va Janubiy Amerikaning ichki qismlari, Yangi Zelandiya, Yangi Kaledoniya, Janubiy Georgiya, Jamiat, Gavayi, Kuk va boshqa orollar o'rganildi.

IX asr va XX asrning 1-yarmida geografiya fani sezilarli darajada rivojlandi. Bu bosqichga kelib milliy geografiya jamiyatları tashkil etilishi boshlandi. Jumladan, Fransiya (1821), Germaniya (1828), Buyuk Britaniya (1830), Rossiya (1845), Turkistonda esa 1897-yilda tuzilgan. Ko'pgina davlatlar tomonidan yirik ilmiy tadqiqot ekspeditsiyalari uyuşhtirildi.

18—19-asrlarda madrasalarda umumiyl holda, 19-asrning 80-yillarida rus-tuzem maktablarida, 1900 yillardan esa yangi usul mакtablarida dastur bo'yicha o'qitila boshlangan. 19-asr 90-yillaridan GEOGRAFIYAdan birinchi o'quv qo'llanmasi — "Yer xususida ilmdan olingan so'zlar" o'zbek tilida nashrdan chiqqan. 1880-yillarda Hoji Yusuf Hay'atiy (1842—1924) geografik globusni



yasadi. 1905 yilda yangi usul maktablari uchun “Turkiston va unga yondosh mamlakatlarning haritasi” chop etildi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. 10-sinf geografiya darsligi
2. Geografiya.uz
3. Ziyonet.uz



UMUMIY TABIIY GEOGRAFIYA.

Aliyeva Xolida Sulaymonovna  
Navoiy viloyati Qiziltepa tumani  
18-umumta’lim maktabi  
Geografiya fani  
o’qituvchisi tel:912543770

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiylar geografiya haqida bat afsil yoritildi.

**Kalit so’zlar:** tabiat, tabiiy muhit, landshaft qobig’i, geografik qobiq, geografik Sistema,yer,landshaft.

Hozirgi vaqtida kishilarning mehnat faoliyati olib boriladigan, ya’ni jamiyat bilan tabiat o’rtasidagi aloqalar ro’y beradigan muhit turli mualliflar tomonidan turli xil terminlar bilan ifodalanmoqda. Chunonchi, “tabiat”, “tabiiy muhit”, “landshaft qobig’i”, “geografik qobiq”, “geografik sistema” va boshqalar mavjud. Aslini olganda bu terminlar mazmuni bir xildek ko’rinsada, ular bir-biridan farq qiladi. “Tabiat” tushunchasi umumiylar ilmiy va falsafiy tushuncha bo’lib, butun borliqnikiointi o’z ichiga oladi. Torroq ma’noda olganda esa barcha tabiiy fanlarning o’rganish obyekti. “Tabiiy muhit” tushunchasi esa tabiatning jamiyat bevosita aloqada bo’lgan qismini ifodalaydi. Insonning fan va texnika imkoniyatlari oshib borgan sari tabiiy muhit ham eniga, ham bo’yiga kengayib boradi. “Geografik muhit” tushunchasi esa Yer (geo) bilan bog’liq tushuncha bo’lib, Yerning yuza qismi bilan uning yaqin atrofini o’z ichiga oladi. “Geografik qobiq” bilan “landshaft qobig’i” tushunchalari bir-biriga juda yaqin. Geografik qobiqqa yer po’sti, butun gidrosfera va biosfera hamda atmosferaning quyi (troposfera) qismi kiradi. V.B.Sochava sistemalarni uchta asosiy katta-kichik bosqichga ajratishni taklif qiladi: planetar, regioanl va topologik. Planetar geosistema geografik (landshaft) qobiqdan iborat. Regioanl geosistemalarga geografik qobiqning yirik qismlari-tabiiy geografik zonalar, tabiiy o’lkalar, provinsiya va landshaftlar kiradi. Topologik geosistemalarga landshaftning tarkibiy (morfologik) qismlari-joy, urochishe, fatsiyalar kiradi. Yerning landshaft qobig’i ham, har bir landshaft ham tabiat komponentlari-relyef, tog’jinslari, tuproq, iqlim, yer osti va yer osti suvlari, hayvonot hamda o’simlik dunyosi va ularning elementlaridan tashkil topgan.

Tabiat komponentlarining har biri o’ziga xos qonuniyatlar asosida mavjud va rivojlanadi. Biroq, hech bir komponent boshqa komponentlardan ajralgan holda rivojlanmaydi, ular doimo bir-birining ta’sirida bo’ladi va ularning o’rtasida modda hamda energiya almashinib turadi. Binobarin, landshaft qobig’i va har bir landshaft tabiiy komponentlarning oddiy yig’indisidan iborat bo’lmay, ularning o’zaro uzviy bog’langan bir butunligidan iboratdir. Landshaftning barcha komponentlari muayyan muvozanatda shunday tabiiy kompleks hosil qiladiki, unda yangi sifat vujudga keladi. Landshaft qobig’i va landshaftlarning bir butunligi tabiat komponentlarining shunday nozik muvozanatidan iboratki, geografik komplekslardagi bironta qismining o’zgarishi butun kompleksning o’zgarishiga olib keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.G’ulomov P.N.O’zbekistonda tabiatdan foydalanishning geografik asoslari.-T.Universitet,1990.
- 2.Glushkova P.G ,Makar S.V Ekanomika prirodopolzovaniya.2005 y.
- 3.Nikolayev V.A. Landshafti aziatskix stepey.-M:1999 y.

# **“ЎЗБЕКИСТОН ОЛИМЛАРИ ВА ЁШЛАРИНИНГ ИННОВАЦИОН ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАРИ”**

**(25-қисм)**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2021

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000